

**MAMLAKATIMIZ TA'LIM TIZIMIDA MULTIMEDIADAN
FOYDALANISH VA UNING CHET TILLARINI O'ZLASHTIRISHDA
ZARURLIGI (BOSHLANG'ICH SINFLAR MISOLIDA)**

Yoqubjonova Mohlaroyim

TDPU Doktarant

Annotatsiya. Bugungi texnologiya rivojlangan asrda, o'quvchilarga zamonaviy ta'lism berish, xususan, multimedia imkoniyatlaridan to'liq foydalanib dars o'tish har bir sifatli va mazmunli dars berishni istaydigan mohir pedagoglarning maqsadidir. Aniq fanlar qatori, muhim fanlardan hisoblangan chet tilini qiziqarli va tez o'r ganiladigan qilib o'quvchilarga yetkazib berish ta'lism tizimida multimedianing eng yangi mahsulotlaridan o'quv dargohlarida foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu maqolada chet tilini multimedia orqali osonroq o'rgatish va oz'lashtirish muhimligi yoritildi.

Kalit so'zlar. Multimedia, harakatli o'yinlar, axborotlarni uzatish, audio va video materiallar.

Bugungi zamonaviy ta'lism tizimida chet tillarini, xususan ingliz tilinio'r ganish ta'lism tizimining ajralmas qismiga aylandi. Barchamizga ma'lumki mustaqilligimizning keyingi yillarida chet tili o'qitishgabo'lgan talab sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning 2012-yil dekabroyidagi chet tilini o'qitishning yanada takomillashtirishga oid qarori e'lon qilingandan so'ngbu borada keskin burilish bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimizning qarorigako'ra chet tillarini o'qitishni birinchi sinfdanoq boshlash yo'lga qo'yildi. Endi esa chet tilinio'qitishda boshqacha talab, yangicha yondashuv, shuningdek yosh bolalarning ruhiyatidankelib chiqqan holda yangi texnologiya va uslub yaratish zaruriyati tug'ildi. Dastlab yangi,mukammal darslik yaratish va darslikka oid ko'rgazmali quollar ishlab chiqish ustidadasturlar ishlab chiqildi. Eng muhimi chet tili ona tili bo'lmanligidan quyi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sinfo'quvchilarining zeriktirib qo'ymaydigan o'yinli darslar o'tilishi yo'lga qo'yildi. Mavzularni o'yin tarzida yetkazib berish uchun harakat va ijodkorlikka yetaklovchi, tanqidiy fikrlashga undaydigan, intellektual salohiyatini oshirishgaqaratilgan, bolaning qobilyatlarini har tomonlama rivojlantirishga keng imkoniyatlar beradigan harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlarga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni olibborish, mashg'ulotlarda esa bir xillikdan qochish lozim. Turli interfaol va intelektual-psixologik o'yinlardan foydalanish orqali bolalarning qiziqish darajasini kengaytirishdarkor. Mashg'ulotlarda sifatli va zamon talabiga javob beradigan darajadagi innovatsion metod va ko'rgazmali qurollardan foydalanish mashg'ulotni muvafaqqiyatlari tashkil etishdagi birinchi qadamdir.

Birinchi sinflarda chet tilini o'qitishni yo'lga qo'yilishi eng muhim qadamlardan bo'lib hisoblansa, quyi sinflarda chet tilini o'qitishning yangicha usulda o'qitish ham asosiy muammolardan biridir. Chunki mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq barcha sohalardabo'lgani kabi chet tillarini o'qitishda ham islohotlar o'tkazilib kelindi. Multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni o'zatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Multimedia vositalaridan foydalanishning turli usullari mavjud:

1. Audiomateriallar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Dialoglar, qisqa hikoyalar va qo'shiqlar orqali talaffuz va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Tinglab tushunish qobiliyatini oshirish uchun turli darajadagi matnlarni tinglash.

2. Videomateriallar

- Multfilm va qisqa videolavhalari orqali o'quvchilarni yangi so'zlar va iboralar bilan tanishtirish.
- Madaniyat va tilni tushunish uchun chet el madaniyati haqida video lavhalarni ko'rsatish.

3. Interaktiv o'yinlar va mashqlar

- Til o'rganish uchun "quiz" va "flashcard" o'yinlaridan foydalanish.
- Gamifikasiya elementlarini joriy etish, masalan, topshiriqlarni bajarish orqali ball yoki sovrin yig'ish.

4. Elektron darsliklar va ilovalar

- Elektron darsliklar va o'yinlar bilan o'z-o'zini baholashni ta'minlash.
- Chet tilini o'rganishga mo'ljallangan ilovalar (Duolingo, Lingokids) orqali darslarni boyitish.

5. Onlayn platformalar va virtual sinflar

- Google Classroom, Zoom yoki Microsoft Teams orqali masofaviy darslar o'tkazish.
- Virtual sinfda o'qituvchi va o'quvchi o'rtafigi interaktivlikni oshirish.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llashning asosiy muammolari va kamchiliklari.

Ta'limda multimedia vositalaridan foydalanishning umumiy bo'lgan birmuncha salbiy taraflari ham mavjud. Ular jumlasiga diqqatning bo'linishi, materiallarni yaratishdagi murakkabliklar, vaqtning ko'proq talab etilishi, dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar, axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar va boshqa jihatlar kiradi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Diqqatning bo‘linishi. Axborotlarni taqdim etishning murakkab usullaridan foydalanish aksariyat hollarda har xil nomutanosibliklar tufayli ta’lim oluvchilar diqqatini o‘rganilayotgan asosiy mavzudan chalg‘itishi mumkin. Multimedia vositalarida taqdim etilayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar, turli havola (ssylka) va shu kabilar dars jarayonida o‘quvchi diqqatini bo‘lishi mumkin

Ma’lumki, multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonini boyitadi, o‘quv materiali ta’limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralilashtirish imkonini beradi. Multimedia — bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta’midot boshqaruvi ostida o‘zaro vizual va audiosamara ta’siridan iborat bo‘lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni bir raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, zamonaviy ta’lim vositalari — interaktiv, audio-vizual, multimediali o‘quv jihozlari — shunchaki zamonaga mos rusumga aylanib borayotgan vositalar emas, balki o‘quvchi-talabalar shaxsini rivojlantirish uchun variative imkoniyatdir. Zamonaviy ta’lim tizimining vazifasi esa shunchaki bilim berishdangina emas, balki o‘quvchi-talabalarning ijodiy tafakkurini loyihalashtirishga yordam berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nikolov, M., & Mihaljevic Djigunovic, J. (2006). Recent research on age, second language acquisition, and early foreign language learning. Annual Review of Applied Linguistics, 234-260.
2. Muratova, N. (2022). The Online Media Environment as a Part of the Global Information Market: Analysis of Structure and Development Trends. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 1-6.
3. Mengliyev Sh. (2014). Multimediad dan foydalansh usullari. Onlayn maqola: [Multimediad an f.](#)